

## TA'LIM MUASSASALARIDA INKLYUZIV TA'LIM TUSHUNCHALARINI RIVOJLANTIRISH

**Ibodullayeva Sabohat Zavqiy qizi**

Buxoro davlat pedagogika instituti  
Pedagogika va ijtimoiy fanlar fakulteti talabasi

### ANNOTATSIYA

*Ushbu maqolada zamonaviy maktablarda inklyuziv ta'limni tashkil etish, alohida ta'limga ehtiyoji bo'lgan bolalarda o'ziga bo'lgan ishonchni shakllantirish, o'qituvchining inklyuziv ta'limini amalga oshirishga qaratilgan psixologik tayyorligini ta'minlash hamda inklyuziv ta'limda tenglik tushunchalarini shakllantirish amaliy va nazariy tahlil qilinadi.*

***Kalit so'zlar:** inklyuziv ta'lim, imkoniyati cheklangan bola, psixologik yordam, pedagogik mahorat, diskriminatsiya, tenghuquqlilik va boshqalar.*

Respublikamizda olib borilayotgan barcha islohotlarning maqsadi davlatimiz kelajagiga mustahkam poydevor qurishdan iborat. Bu poydevor sog'lom, yetuk va barkamol shaxslarni tarbiyalab voyaga yetkazish natijasida yaratiladi. Ta'lim sohasidagi bu islohotlar bugungi kunda o'z samarasini bermoqda. Mazkur huquqiy me'yoriy hujjatlar doirasi maxsus ehtiyojli bolalar ta'lim-tarbiyasini ham qamrab olgan.

Maxsus ehtiyojli bolalar ta'lim tarbiyasi masalasi bugungi kunda eng dolzarb masalalar sirasiga aylanib bormoqda.

Maxsus ta'lim imkoniyati cheklangan bolalar uchun ta'lim tizimi sifatida rivojlangan.

Ta'lim muassasalarida inklyuziv ta'lim tushunchalarini rivojlantirish haqida so'z yuritar ekanmiz, avvalo, inklyuziv ta'limning mazmun-mohiyatiga e'tibor qaratsak. Inklyuziv ta'lim barcha o'quvchilar uchun maxsus ta'lim ehtiyojlari va individual imkoniyatlarning farqliligini inobatga olgan holda, ta'lim muassasalarida ilm olishda teng huquqlikni ta'minlashdir. Bugungi kunda zamonaviy maktablarda inklyuziv ta'limni tashkil etish, birinchi navbatda, maktabning ichki madaniyati va standartlari bilan bog'liq bolishi lozim. Inklyuziv ta'limni joriy qilgan maktablarda, avvalambor, o'qituvchilarning o'zlarini psixologik tayyorlash muhim ahamiyat kasb etadi. Negaki, o'qituvchining inklyuziv ta'limni amalga oshirishga qaratilgan psixologik tayyorgarligi ostida, imkoniyati cheklangan bolalar va sog'om bolalar o'rtasida tenglik huquqini shakllantirish va ta'limdagi yondashuvni taminlash

masalalari turadi. Ta'limga inklyuzivlikni olib kirishda, o'qituvchi ba'zan psixologik qo'llab-quvvatlash tizimini tashkil qilishi kerak. Buning uchun, albatta, maktab psixologi o'z ishiga ma'suliyat bilan yondashishi muhim. Eng asosiysi psixolog, o'qituvchi va o'quvchilar bilan muloqot qilishi va ularning psixologik holatlarini o'rganishi lozim.

Imkoniyati cheklangan bola bu qobiliyatsiz bola degani emas. Faqatgina uning qobiliyatini ko'ra olish va yuzaga chiqara olish darkor. Bunday olib qaraganda har birimiz doimo kattalar yordamiga muhtojmiz. Imkoniyati cheklangan bolaga esa bizga nisbatan ko'proq kattalar yordami kerak bo'ladi. Shundan kelib chiqqan holda, imkoniyati cheklangan bolalarni qiziqishiga ko'ra yo'naltirish yuqori samaralarga erishishga yo'l ochadi. Ayniqsa, ta'lim jarayonida birgalikda ta'lim olish dars jarayonining eng faol shakli bo'lib, bunda bolalar ma'lum bir topshiriqni bajarish uchun birgalikda ishlaydilar. Guruhlarda ko'proq bellashuvlar, musobaqalar va taqdimotlar o'tkazish, imkoniyati cheklangan bolalarda faollikni oshiradi. Albatta bunday jarayonda alohida ta'limga ehtiyoji bo'lgan bolaning bilim darajasi va imkoniyatlarini e'tiborga olish maqsadga muvofiq. Negaki, bu jarayon natijasida, alohida ta'limga ehtiyoji bo'lgan bolada qo'rqish va tortinchoqlik kabi xislatlar bartaraf bo'ladi. Bolalar ongida turli xil noto'g'ri tushunchalarning mavjudligi sababli imkoniyati cheklangan bolalar haqoratlar va masxaralanishlarga duchor bo'lmoqdalar. Bundan ham ayanchlisi, shu kabi salbiy munosabatlarni ayrim o'qituvchilar e'tiborsiz qoldiryaptilar.

Ta'lim tarbiya samaradorligini oshirish uchun ham, barcha ta'lim maskanlarida hamma bolalar uchun teng huquqli, do'stona, iliq munosabatdagi muhitni yaratish, o'qituvchidan kattagina pedagogik mahoratni talab qiladi.

Birinchi navbatda, pedagog yoki psixolog alohida ta'limga ehtiyoji bo'lgan bolada o'ziga bo'lgan ishonchni shakllantirishi muhimdir. Pedagog bola uchun, ya'ni bolaning qiziqishlari va bajara olish imkoniyatlarini hisobga olgan holda turli xil treyning va metodlar tayyorlab kelishi kerak. Mashg'ulot davomida, alohida ta'limga ehtiyoji bo'lgan boladan vazifalarni, sinfdagi boshqa bolalardan qabul qilingani kabi qabul qilib uni ruhlantirsa, shuningdek yutuq va kamchiliklarni ham o'z o'rnida tushuntirsa, bunday jarayon alohida ta'limga ehtiyoji bo'lgan bolada o'ziga bo'lgan ishonch tuyg'usini shakllantiradi.

Xulosa qilib aytganda, inklyuziv sinflarda o'quv tarbiya jarayoni ijobiy munosabat va ertaga bugundan ham yaxshiroq bo'lishiga ishonch bilan yo'g'rilgan bo'lishi lozim. Har bir darsni shunday yakunlash lozimki, barcha o'quvchilar uni ishonch va mamnuniyat bilan hamda yana va yana o'qish, o'rganish ishtiyoqi bilan tark etsin. Ana shunday muhitni yarata olsakkina, chinakkam inklyuziv jamiyatni qura olamiz. Barchasi biz pedagoglarning shijoatimiz va mahoratimizga bog'liq.

### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI: (REFERENCES)

1. G.A.Sodiqova, D.A.Nurkeldiyeva Rivojlanishi orqada qolgan bolalar diagnostikasi (ma'ruzalar matni) T., 2001
2. "Ta'lim hamma uchun milliy dasturini joriy qilish masalalari" mavzusidagi ilmiy-amaliy konferensiya materiallari. Toshkent-2005 yil.
3. Ture Yonson "Inklyuziv ta'lim"- "Opereyshen Mersiy" Toshkent-2003 yil. O'qituvchilar uchun qo'llanma.
4. U.Fayziyeva, Y.Abdurazakova "Do'stona munosabat muhitidagi maktab".
5. U.Fayziyeva, D Nazarova , X.J.Kolbayeva "Eshitishida muammolari bo'lgan bolalar inklyuziv ta'limi".